



## **O'ZBEKISTON MUSIQASHUNOSLIK-MAQOMSHUNOSLIK MAK TABI (PROFESSOR RAVSHAN YUNOSOV FAOLIYATI MISOLIDA)**

**Muallif:** F.Q.Maksumova<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at" fakulteti "Tasviriy san'at va musiqa ta'lifi" kafedrasи assistent o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.1437859>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Ozarbayjon mug'omlari va zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti O'zbekiston tadqiqotchilari nigohida (professor Ravshan Yunosov metodik maktabi misolida) mavzusi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Islom operasi, mug'om san'ati, kompozitorlik ijodiyoti musiqa pedagogikasi.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixan rivojlanish yo'li uzun, shaklan va usluban rang-barang musiqa san'atiga ega. Meros qismini asosan azaliy folklor hamda og'zaki ravishdagi an'anaviy ijodkorlik navlari tashkil etishi ma'lum. Uning mumtoz qatlamida xalqaro qamrovdagi maqomot tizimiga taalluqli, xususan o'zbek maqomiga turdosh va nomdosh bo'lgan durdoni mahsullar salmoqli o'rinni tutadi. Maqom san'ati o'zining kelib chiqishi qadimiy, mazmuni teran, milliyligi yorqin sifatlari bilan ajralib turadi. Ushbu ruhiy-ma'naviy boylikdan barcha avlodlar bahramand bo'lishi uchun yurtimizda yetarli shart-sharoitlar bor.

Jumladan, madaniyat va san'at o'quv yurtlarida maqom merosining ilmini o'rganish hamda ijro mahoratini o'zlashtirish maqsadlarida qator o'quv fanlari ila ixtisoslik yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Shular jumlasidan, O'zbekiston davlat konservatoriysi hamda yangi ochilgan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy Musiqa San'ati institutida Sharq xalqlari maqomoti hamda o'zbek an'anaviy ijrochiligi tarixi va nazariyasi keng o'qitilmoqda. Bunda albatta, pedagoglik tajribasi yetarli, ilmiy salohiyati kuchli mutaxassis olimlarni alohida ta'kidlash o'rinnidir. Shunday musiqashunos-maqomshunos olimlar orasida Yunusov Ravshan Yusupovichni alohida eslab o'tamiz.

Ravshan Yunusov O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor. 1969-yili Toshkent davlat konservatoriyaning musiqashunoslik fakultetiga qabul qilindi. 1974-yili konservatoriyaning aspiranturasiga kirdi. Maqom san'atining bilimdoni, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Is'hoq Rajabov ilmiy rahbarligida izlanishlarini davom ettirdi. Ustozi rahbarligida mumtoz maqom san'ati asoslarini o'rgandi va o'qishni bitirgach, shu masalada izlanishlarini davom ettirdi. "Черты общности и различий в макомах и мугамах" nomli o'zbek va Ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqa merosining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini yozib, 1983-yili uni muvaffaqiyatli himoya qilgan. Professor R.Yunusov

pedagoglik faoliyati davomida "Maqom asoslari", "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi", "Maqom va zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti", "Sharq xalqlari maqomlari" fanlaridan talaba-yoshlarga uzoq yillardan buyon ta'lif berib kelmoqdalar. Ushbu fanlar va dars jarayonlari qiziqarli, bir-birini takrorlamaydi. Dars mashg'ulotlarda mavzuga oid qiziqarli tarixiy va amaliy, ijodiy mazmunga boy ma'lumotlar tinglanadi, ko'rgazmali tarzda ham taqdim etiladi. Maqom turkumlaridan turli cholg'u kuy yoki ashula bo'limidan sho'balar, taronalar nota misollari yordamida tinglanib, tahlil qilinib boriladi. R.Yunusovni nomzodlik dissertatsiya ishi mavzusi Ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqa merosining qiyosiy tahliliga bag'ishlanganligini yuqorida keltirib o'tdik. Shu sababli, ustoz Ozarbayjon mug'omlari va zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida ushbu mug'omlardan samarali foydalaniб yaratilgan asarlarni o'zbek ijrochi hamda ijodkor talabalariga ilmiy asoslangan tahlillar bilan yetkazib beradilar. Maftunkor va sehrli Ozarbayjon diyorining tom ma'noda faxri hamda g'ururi hisoblangan ijodkori bu albatta Uzeir Hojibekov Abdulhasan o'g'lidir. Ushbu ijodkorning bir qancha asarlari orasida "Layli va Majnun" asari butun Islom olamidagi birinchi opera hisoblanadi. Asar 1907-yil Uzeir Hojibekov tomonidan yaratilgan. Opera XVI asr shoiri Fuzuliyning "Layli va Majnun" fojeasi asosida yaratilgan. 1909-yil Majnun ro'lida: Huseyinkuli Sarabskiy, Layli ro'lida: Ahmed Agdam ijro etganlar. Albatta ushbu ijro video shaklida to'liq saqlanib qolimмаган, lekin, 1978-yilgi spektaklini <https://www.youtube.com/> tarmoqlaridan topib, tomosha qilish nasib qildi. 1978-yil talqinida Majnun: Arif Babayev, Layli: Zaynab Xanlarova maromiga yetkazib ijro etganlar. Birinchi ko'rinishda Layli va Majnun o'rtaсidagi o'zaro sevgi tuyg'usi quvonchi "Segah"ning eng yorqin lirik mug'amalarini ochib beradi. Operada xonanda ovozini hamda Ozarbayjon milliy ijro maktabi an'anasidek kelib chiqib, xonandalarning ariya hamda duetlari tor cholg'usi bilan birga ijro etiladi. Solo torda Baxrom Mansurov ijrosini ko'rish hamda tinglash mumkin.



Kompozitor U.Hojibekov shoир Fuzuliyning she'ridagi qahramon Laylidan farqli o'larоq, Ozarbayjon ayollarini erkinsevar intilishlarini aks ettirgan. Bunga misol tariqasida Layli Ibn Salomga uzatilayotgan to'y kunida Ibn Salom Laylidan "Ko'nglinda muhabbat bormi?" deb bergen savoliga Layli Majnunga bo'lgan muhabbatini tan oladi. Operaning yakuni ham e'tiborimizni tortdi. Bilamizki, operalarda boshlanish (prolog) va yakuniy xotima bo'limi (epilog)lardan keng foydalanan kuzatiladi. Ushbu operada ham epilogga o'zgacha yondashuv bizni lol qoldirdi. Uni misolini rasmda ko'rish orqali tushunish yanada oson bo'ladi.



Shuning bilan, professor R.Yunusovning biz talaba-yoshlarga bergen ta'limgaktabidan bitta misolni keltirish bilan maqolamizni yakunlaymiz. Ustoz R.Yunusovni ilmlari bundanda ziyoda bo'lsin, alloh umrlarini uzoq qilsin. Biz shogirdlariga esa ustozni havasli ilm yo'llarini bersin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ақбаров И.А. Музика луғати – Тошкент: “Фоғур-ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1987, 450 б

Yunusov R.Yu. Sharq xalqlari maqomlari. O'quv-qo'llanma - Toshkent: Adast poligraf, 2022. - 150 b.

<https://www.youtube.com/>